

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
mart



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT week Uzbekistan 2025: Milliy texnologiyalar haftaligining yakunlari va ularning O'zbekiston IT-ekotizimiga ta'siri.....	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSİYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKILOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



РАЗВИТИЕ OPEN BANKING КАК ДРАЙВЕР ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОЙ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ	80
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр ўғли	
NAVIGATING TAX RISKS ARISING IN THE MANAGEMENT OF ENTERPRISES.....	83
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
DVIGATELNING TASHQI TEZLIK TAVSIFNOMASIGA DVIGATEL QUVVATI, TIRSAKLI VALINING MAKSIMAL AYLANISHLAR SONI, SOATLI YONILG'I SARFI VA SOLISHTIRMA YONILG'I SARFLARIGA TA'SIRI.....	86
Abdug'aniyev Shohruh Oxunjon o'g'li, Abdusattorov Nodirjon Abduljalil o'g'li	
FROM TRADITIONAL BANKING TO FINTECH ECOSYSTEMS: PERFORMANCE IMPLICATIONS	90
Rano Parpieva	
ZAMONAVIY SHAROITDA MEHNAT MOTIVATSIYASI NAZARIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INSONIY MUNOSABATLAR MAKTABINING AHAMIYATI	92
Aslanov Aziz Mexmonovich	
ВОДНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ КОМПРОМИСС В СИСТЕМЕ ЦУР УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕЖЦЕЛЕВЫХ КОНФЛИКТОВ	96
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
THE ECONOMIC IMPORTANCE OF INTERNATIONAL TRADE AND ITS ROLE IN GLOBAL GROWTH	99
Nurova Farog'at Salohiddin qizi	
AHOLINING MOLIYAVIY FIRIBGARLIKKA ALDANISH EHTIMOLINI KAMAYTIRISHDA MOLIYAVIY TA'LIMNING O'RNI.....	102
Irgashev Anvar Farxodovich	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TASHQI SAVDONI OPTIMALLASHTIRISH VA ENERGETIKA XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	105
Nosirbekov Sanjarbek Toxirbekovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH	107
Turaboyev Ibroxim Ismoil o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	111
Xakimov Akbar Anvarovich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA NOMODDIY AKTIVLARNING IQTISODIY MAZMUN-MOHİYATI	114
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQIDAN OLINADIGAN SOLIQLAR VA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ KODEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	117
Nomofov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARI RAQAMLI INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYA QILISH	119
Hazratkulov Faxriyor Abdumuxammad o'g'li	
ОЦЕНКА ЛИДЕРСКОЙ ЗРЕЛОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ СФЕРЫ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ КРЕАТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	122
Абдусаламова Фароғат Сунатиллаевна	
STATE OF DEVELOPMENT AND DYNAMICS OF THE FRUIT PROCESSING INDUSTRY.....	125
Yusufova Laylo Gayrat kizi	
STARTAP LOYIHALARINING MILLIY IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDAGI ROLI.....	132
Ko'chimova Madinabonu Qaxramon qizi, Sheraliyev Nurbek Jumanazar o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI SAMARADORLIGI VA BOZOR QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING KO'P FAKTORLI MODELLARI.....	135
Jumatova Gulzar Maxmud qizi	



INNOVATSION RIVOJLANISHDA MEHNAT RESURSLARINING SAMARADORLIGINI HISOBLASH USULLARI.....	139
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
INSTITUTIONAL FEATURES OF STATE REGULATION OF PRODUCT QUALITY MANAGEMENT	143
Atakulov Askad Raimkulovich	
TA'LIM MARKAZINING OBRO'SI VA RAQOBATBARDOSHLIGIGA MALAKALI XODIMLARNING TA'SIRINI BAHOLASH.....	146
Razzoqova Zebo Xusniddinova	
THE IMPACT OF RAPID TAX DISPUTE RESOLUTION SYSTEMS ON THE BUSINESS ENVIRONMENT AND PROSPECTS FOR THEIR DEVELOPMENT.....	149
Solihova Xumora Xasan kizi	
МОДЕЛИРОВАНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ ОБЩЕСТВА 5.0 НА УСТОЙЧИВОЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАН БРИКС-Т.....	153
Калдибаев Нурлан Алимжанович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNING INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIRI.....	156
Kurashev Sobir Saidmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY O'ZIGA XOS JIHATLARI	159
Po'latova Mavluda Sanjar qizi	
ПРИЗНАКИ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ И УПРАВЛЕНИЕ ИХ КАЧЕСТВОМ.....	162
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
THE ECONOMIC ESSENCE OF LABOR AND ITS INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS.....	165
Nomozov Ilhomjon Ziyadullah ugli	
MADANIYLASHTIRILGAN GO'SHTNING QAYTA ISHLANGAN GO'SHT MAHSULOTLARI XOM ASHYOSIDA ISHTIROKI.....	168
Xaydarova Sitara Suranbay qizi	
NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	170
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQI AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA XALQARO AUDIT STANDARTLARI (ISA) KONTEKSTIDAGI TALQINI.....	173
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI, TURLARI VA XUSUSIYATLARI.....	175
Hakimova Nargiza Abduraimovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TADBIQ QILISH YO'NALISHLARI VA INSTRUMENTLARI TAHLILI	180
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF SUBJECTS ENGAGED IN MEAT PROCESSING IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE DIRECTION.....	184
Sitara Khaydarova	
"XAVFSIZ SHAHAR" TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	188
Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNI JORIY ETISHDA DAVLAT MOLIVASI STATISTIKASI: JORIY HOLAT VA ISTIQBOLLI REJALARI.....	190
Artikov Baxtiyor Maxkamovich	
DAVLAT QARZINI SAMARALI BOSHQARISH VA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	193
Sattoriy Fayzulloh Abdijabbor o'g'li	



O'Z KAPITALI HISOBINI YURITISHDA XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARINI QO'LLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	196
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH ORQALI KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
THE IMPACT OF MANAGING THE INTERREGIONAL MOBILIZATION OF QUALIFIED TEACHERS ON THE QUALITY OF EDUCATION.....	202
Karimov Dostonjon Karimovich	
O'ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI HOLATI.....	204
Suyarov Shaxzod Salim o'g'li	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.	206
Гимранова О. Б.	
ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH.....	209
Berdiyev Temurbek	
ТЕОРЕТИКО-НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	213
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ ФОНДОВОГО РЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	218
Шомуродов Равшан Турсункулович, Юсупова Нигора Собитжон кизи	
IQTISODIYOTDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INSTITUTIONAL MECHANISMS.....	223
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	226
Mannonov Shoxruhmirza Abdurashid o'g'li	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	231
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
FINANCING SYSTEM OF EXPORT ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS ENTITIES IN THE IMPROVING....	234
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
GENERATIV SUN'IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYA QILISHDAGI O'RNI	236
Saidov Jaloladdin Allaberganovich	
STRATEGIC INTEGRATION OF DIGITAL MARKETING TECHNOLOGIES IN SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES: DRIVERS, BARRIERS, AND ECONOMIC PERFORMANCE.....	239
Pirmatov Oybek Shovkat ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNING HUDUDIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	243
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich	
FEATURES AND PRINCIPLES OF ECONOMETRIC MODELING OF INDUSTRIAL DEVELOPMENT.....	246
Choriev Tolib Azamovich	
FEATURES OF INVESTMENT BEHAVIOUR IN THE CONTEXT OF FINTECH TECHNOLOGY DEVELOPMENT	251
Karimova Nurjakhon Olim kizi	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA HUDUDIY INFRATUZILMAGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH MECHANISMS TAKOMILLASHTIRISH	255
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON BOZORLAR ORQALI XALQARO SAVDONI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	259
Hamroyeva Umida	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYANING IQTISODIY MAZMUNI VA NAZARIY ASOSLARI.....	262
Sarimsaqov Sherzod Xamidovich	
INCREASING THE COMPETITIVENESS OF ENTERPRISES IN THE CONSTRUCTION MATERIALS INDUSTRY	268
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BOZORI ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH AMALIYOTI VA ISTIQBOLLARI.....	272
Otabek Oltiboyev	
TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA VALYUTA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH	275
Israilov Avazbek Rustam o'g'li	
XALQARO UNIVERSITET BOSHQARUVIDA STAKEHOLDER YONDASHUVI: ZAMONAVIY MODELLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	277
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ В УПРАВЛЕНИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ СЕМЕЙНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	279
Султанов Бобирмирзо Мавлонжон угли	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA HAL ETISH	283
Abdulkarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	287
Nurullayeva Mexribon Muratovna	
OPTIMIZATION OF THE FOOD SUPPLY AND DELIVERY SYSTEM IN TASHKENT REGION	290
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
THEORETICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL PROTECTION AND ITS INTERRELATIONSHIP WITH SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT.....	293
Abduzoirov Mukhiddin, Abdulloev Amrullo, Inomjon Qudratov	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI BOSHQARISHGA OID ILMIY YONDASHUVLARNING EVOLYUTSIYASI..	299
Kurbonov S.A.	
INSTITUTIONAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN RURAL UZBEKISTAN: AN ECONOMIC AND STATISTICAL ANALYSIS	304
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
ФАКТОРИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ УПРАВЛЕНИЯ ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	310
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA ISTIQBOLLARI	314
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
RAQAMLI ASALARICHILIK TEXNOLOGIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TAMOYILLARI	318
Farmanov Jonibek Ziyadullaevich	
СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ УВЕЛИЧЕНИЯ КАПИТАЛИЗАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	322
Шомуродов Равшан, Жуманазаров Шахобиддин	
INVESTITION FAOLLIKNI OSHIRISHNING MOLIYA-KREDIT MEKANIZMI: XORIJIY DAVLATLAR AMALIY TAJRIBASI	326
I. Madaminov	



TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI OSHIRISHNING AYOLLAR FAROVONLIGI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI	329
Rahmatov Ziyodullo, Abdukarimova Dilnozaxon	
НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ МИГРАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	332
Ёкубжон Тохиров	
ВЗАИМОСВЯЗЬ ВЫБРОСОВ CO ₂ , ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И ДОСТУПА К ЧИСТОМУ ТОПЛИВУ И ТЕХНОЛОГИЯМ С РАСХОДАМИ НА ЗДРАВООХРАНЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	336
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
ВЛИЯНИЕ НЕФТЯНОЙ ЗАВИСИМОСТИ И УРОВНЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКИЙ РИСК УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.....	341
Эркинбаева Камила, Бекзод Кузибаев	
МЕХАНИЗМ РЕАЛИЗАЦИИ ТУРИСТСКИХ ПРОДУКТОВ НА ОСНОВЕ МЕСТНЫХ СООБЩЕСТВ	347
Абзалова Нозимахон Нодирбек кизи	
THE ROLE OF DIGITAL PLATFORMS IN CONDUCTING ELECTRONIC SALES OF ENTERPRISE PRODUCTS	350
Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o'g'li	
LATENT DEMAND AND THE CAPACITY ILLUSION IN RAIL TRANSPORT	354
Kurambayev Alisher Saburbayevich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA PORTFELINI "YASHILLASHTIRISH" VA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	357
Soliyev Muhammad Umar Baxromjon o'g'li	
SCENARIO FORECASTING OF TEXTILE SECTOR DEVELOPMENT	361
Nurullayeva Mexribon Muratovna	
AHOLI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING TURMUSH DARAJASIGA TA'SIRINI TAKOMILLASHTIRISH.....	365
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna	
INFRATUZILMA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA TASHABBUSLI BUDJET MEXANIZMINING O'RNI	367
Yarbazarov Shavkat Butayevich	



INFRATUZILMA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA TASHABBUSLI BUDJET MEXANIZMINING O'RNI

Yarbazarov Shavkat Butayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchi

E-mail: yarbazarov_shavkat@gmail.com

ORCID: 0009-0001-0214-6180

Annotatsiya. Ushbu tezisda mahalliy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini tashabbusli budjet mexanizmi asosida takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Hududlar kesimida mablag'lar taqsimotidagi tafovutlar, sheriklik asosidagi loyihalarning institutsional rivojlanish holati hamda baholash tizimining ayrim jihatlarini tahlil qilingan. Natijalar asosida deputat tashabbuslarini qo'shimcha moliyalashtirish, aholi va davlat o'rtasidagi sheriklikni kengaytirish, differensial baholash tizimini joriy etish hamda soliq intizomiga asoslangan sheriklik modelini qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu takliflar infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish samaradorligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: infratuzilma loyihalari, moliyalashtirish amaliyoti, tashabbusli budjet, davlat va fuqarolar o'rtasidagi sheriklik, deputat tashabbusi, soliq intizomi.

Abstract. This thesis examines ways to improve the financing of local infrastructure projects through the participatory budgeting mechanism. It analyzes regional disparities in the allocation of financial resources, the institutional development of partnership-based projects, and selected aspects of the existing evaluation system. Based on the findings, proposals are developed to provide additional financing for deputy initiatives, expand partnerships between citizens and the state, introduce a differentiated evaluation system, and apply a partnership model based on tax discipline. These proposals are aimed at improving the efficiency and sustainability of infrastructure project financing.

Keywords: infrastructure projects, financing practices, participatory budgeting, citizen–state partnership, deputy initiative, tax discipline.

Аннотация. В тезисе рассматриваются вопросы совершенствования практики финансирования местных инфраструктурных проектов на основе механизма инициативного бюджетирования. Проанализированы различия в распределении финансовых ресурсов по регионам, уровень институционального развития проектов, реализуемых на принципах партнерства, а также отдельные аспекты существующей системы оценки. По результатам исследования разработаны предложения по дополнительному финансированию депутатских инициатив, расширению партнерства между населением и государством, внедрению дифференцированной системы оценки и применению модели партнерского финансирования, основанной на налоговой дисциплине. Предлагаемые меры направлены на повышение эффективности и устойчивости финансирования инфраструктурных проектов.

Ключевые слова: инфраструктурные проекты, практика финансирования, инициативное бюджетирование, партнерство населения и государства, депутатская инициатива, налоговая дисциплина.

KIRISH

Tashabbusli budjet mexanizmining amaliyotiga joriy qilinishi mahalliy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat idoralari va fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashning muhim bosqichlaridan biri bo'ldi. Amalga oshirilgan tahlillar infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish amaliyotining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash, hududlar o'rtasida mablag'larni taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalarining institutsional imkoniyatlarini kengaytirish zarur bo'lgan ayrim jihatlar mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu holat infratuzilmani moliyalashtirish jarayonining yanada takomillashtirilishini, uning moliyaviy resurs bazasini kengaytirishni hamda aholi va davlat o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini institutsional jihatdan mustahkamlashni taqozo etadi. Tezisda aniqlangan jihatlarni takomillashtirish hamda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar batafsil yoritiladi.

Sheriklik asosida moliyalashtirilgan infratuzilma loyihalari bo'yicha ajratilgan mablag'larni hududlar kesimida tahlil qilish ushbu yo'nalishning ayrim faol hududlarda jamlanib qolgan ekanligini ko'rsatadi. Mablag'lar hajmining yarmidan ko'prog'i yagona hudud, ya'ni Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri kelib, undan keyin Samarqand va Namangan viloyatlari nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega ekan. Shu bilan birga, mamlakatning yarmiga yaqin

hududida, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Farg'ona va boshqa viloyatlarda infratuzilma loyihalarini sheriklik asosida moliyalashtirish uchun mablag' ajratilishi kuzatilmagan. Hududlar o'rtasidagi bunday sezilarli tafovut sheriklik mexanizmini infratuzilmani moliyalashtirish amaliyotiga joriy etish jarayoni barcha hududlarda bir xil darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, korrelyatsion tahlil natijalari sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalarini bo'yicha g'olib deb topilgan loyihalar sonining boshqa asosiy ko'rsatkichlar bilan statistik bog'liqligi yuqori emasligini ko'rsatadi. Bu holat infratuzilma loyihalarini sheriklik asosida moliyalashtirish yo'nalishining tashabbusli budget tizimining boshqa yo'nalishlariga nisbatan o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bois ushbu yo'nalishning imkoniyatlarini yanada kengaytirish, mavjud moliyaviy o'sish omillaridan samarali foydalanish hamda sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli institutsional mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Mahalliy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish barqarorligini oshirish hamda ovoz bergan hududlar uchun ijtimoiy ahamiyatga ega infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida, har bir deputat kesimida yiliga ikki mavsum davomida bazaviy hisoblash miqdorining sakkiz ming baravariga teng qo'shimcha mablag' ajratish taklif etilgan. Amaldagi Deputat tashabbusi mexanizmi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar asosida o'tkazilgan tahlil hududlar o'rtasida to'rt baravargacha yetadigan tafovutni ko'rsatdi. Bu esa mavjud mablag' ajratish tartibining barcha hududlarda infratuzilma loyihalarini bir xil darajada yetarli moliyalashtira olmasligini ko'rsatadi. Taklif etilayotgan qo'shimcha mablag' infratuzilma loyihalarining moliyaviy resurs bazasini kengaytirib, ayniqsa, hozirgi bosqichda nisbatan kam mablag' ajratilayotgan hududlarda ijtimoiy ahamiyatga ega infratuzilma loyihalarini to'liqroq moliyalashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu mexanizmning ustuvorligi shundan iboratki, u bazaviy hisoblash miqdoriga bog'langanligi sababli mablag' miqdori uning o'zgarishiga mutanosib ravishda yangilanib boradi va shu tariqa infratuzilmani moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'larning real qiymati vaqt o'tishi bilan pasaymaydi. Bundan tashqari, mablag'ning aynan ovoz bergan hududlar uchun ajratilishi fuqarolarning infratuzilma loyihalarini tanlash jarayonidagi ovoz berish faolligini rag'batlantiruvchi qo'shimcha omil vazifasini o'taydi.

Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish va aholi ishtirokini yanada kuchaytirish maqsadida, loyihalarni aholi va davlat o'rtasida sheriklik tamoyili asosida moliyalashtirish taklif etiladi. Bugungi amaliyotda sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalar alohida, cheklangan yo'nalish sifatida mavjud bo'lib, uning umumiy infratuzilmani moliyalashtirish tizimi bilan integratsiyasi yetarli darajada emas. Taklif etilayotgan yondashuvga ko'ra, sheriklik tamoyilini infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish jarayonining tarkibiy qismiga aylantirish, ya'ni loyihalarni baholashda aholining moliyaviy ishtirok darajasini qo'shimcha ustuvorlik mezonini sifatida kiritish nazarda tutiladi. Bunday yondashuvning ijobiy tomoni shundaki, u fuqarolarning o'z hududidagi infratuzilmani rivojlantirishdagi mas'uliyatini oshiradi: loyiha qiymatining bir qismini o'z hissasi bilan moliyalashtirgan aholi loyihaning amalga oshirilishi va undan keyingi ta'mirlash-saqlash jarayonlariga ham ko'proq mas'uliyat bilan qaraydi. Bundan tashqari, davlat mablag'larining bir qismini aholi hissasi bilan almashtirish orqali bir xil hajmdagi budget resurslari hisobidan ko'proq infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyati yuzaga keladi, bu esa umumiy tizim samaradorligini oshiradi.

Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda mahallalarning g'oliblik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, bir mavsum davomida loyihalarni baholash mezonlarini hududning ijtimoiy holatiga mos ravishda differensial tizim asosida shakllantirish taklif etiladi. Amaldagi tizimda barcha mahallalar bir xil mezonlar, ovoz berish natijalari asosida baholanadi, bu esa aholi soni ko'p, faollik darajasi yuqori bo'lgan yirik mahallalarni infratuzilma loyihasi olishda tabiiy ravishda ustunlikka ega qiladi, aholi soni kam yoki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan nisbatan zaif mahallalar esa doimiy ravishda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlaridan nisbatan kamroq foydalanadi. Taklif etilayotgan differensial tizim mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, har bir hudud toifasi uchun alohida baholash mezonlarini belgilashni nazarda tutadi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan cheklangan hududlarning ham infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda teng sharoitda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydi va hududlar o'rtasidagi mavjud tengsizlikni bosqichma-bosqich kamaytirishga xizmat qiladi.

Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla nominatsiyasiga sazovor bo'lgan tashabbuskor mahallalarning infratuzilma loyihalarini 25/75 nisbatida sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmini joriy etish taklif etilgan. Ushbu mexanizm bo'yicha aholi infratuzilma loyihasi qiymatining kamida to'rttdan bir qismini o'z hissasi bilan qoplagan taqdirda, loyiha g'olib deb topiladi va qolgan qismi davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi. G'oliblarni aniqlashda mahalla aholisi sonining har ming nafariga nisbatan hisoblangan kichik biznes subyektlari soni, ular to'lagan soliqlar hajmi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari soni hamda mol-mulk va yer soliqlarini to'lash darajasi kabi shaffof va obyektiv mezonlar qo'llaniladi. Bunday chora nafaqat mahallalarning soliq intizomi va iqtisodiy faolligini rag'batlantiradi, balki infratuzilma loyihalarini sheriklik asosida moliyalashtirish amaliyotining institutsional rivojlanishiga ham turtki beradi, chunki u soliq to'lash madaniyati yuqori bo'lgan mahallalarni moliyaviy jihatdan qo'shimcha rag'batlantirish orqali sheriklik amaliyotini kengroq hududlarga tarqatishga xizmat



qiladi. Bundan tashqari, ketma-ket ikki mavsum g'olib bo'lgan mahallalarga nisbatan qo'llaniladigan amaldagi tartibni qayta ko'rib chiqish, shuningdek, reytingning birinchi yuztaligiga kirgan har bir mahallaga alohida jamg'arma mablag'i ajratish kabi qo'shimcha rag'batlantirish choralari faol mahallalarning infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha tashabbuskorligini uzluksiz saqlab qolishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan takliflar infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan bir-birini to'ldiruvchi yaxlit tizim sifatida shakllantirilgan. Deputat tashabbuslari uchun qo'shimcha summa ajratish infratuzilma loyihalarining moliyaviy resurs bazasini kengaytirs, sheriklik tamoyilini kengroq joriy etish mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi. Differensial baholash tizimi hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilsa, soliq intizomini rag'batlantiruvchi mexanizm esa mahalliy darajada fiskal mas'uliyat va tadbirkorlik faolligini oshiradi. Mexanizmlarning majmuaviy tatbiq etilishi natijasida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish tizimi nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham yanada mustahkam institutsional asosga ega bo'lishi, hududlar o'rtasidagi mavjud tafovutlar esa bosqichma-bosqich qisqarishi kutilmoqda. O'tkazilgan tahlil natijalari asosida ishlab chiqilgan takliflar, ya'ni deputat tashabbuslari uchun qo'shimcha mablag' ajratish, aholi va davlat o'rtasidagi sheriklik tamoyilini kengaytirish, differensial baholash tizimini joriy etish hamda soliq intizomini rag'batlantiruvchi sheriklik mexanizmi kabilar infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish amaliyotining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish hamda aholi va davlat o'rtasidagi institutsional hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ularning amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etilishi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish amaliyotining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi : rasmiy veb-sayt [Elektron resurs]. – URL: <https://imv.uz> (murojaat qilingan sana: 04.09.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budjet" portali [Elektron resurs]. – URL: <https://openbudget.uz> (murojaat qilingan sana: 04.09.2026).
3. Yusupova A. School Initiative Budgeting: Legal Aspects // Academic Law Journal. – 2024. – Vol. 25, No. 2. – P. 321–331. – DOI: 10.17150/1819-0928.2024.25(2).321-331.
4. Lukyanova N. G., Slavgorodskaya M. Yu., Nesgovorov S. K. School Initiative Budgeting in St. Petersburg: Achievements and Growth Points // Financial Journal. – 2025. – Vol. 17, No. 2. – P. 39–55. – DOI: 10.31107/2075-1990-2025-2-39-55.
5. Shatohin D. A., Titov E. A., Paksivatkina V. A. Models of Digitalization of Initiative (Participatory) Budgeting // Financial Journal. – 2025. – Vol. 17, No. 2. – P. 12–24. – DOI: 10.31107/2075-1990-2025-2-12-24.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100